

TINCHLIK ISHIGA KAMARBASTA

Egniga harbiy libos kiyib, O'zbekiston Qurolli Kuchlari safida xizmat qilayotgan, aqlu zakovati, yigitlik shijoati bilan buyuk ajdodlarining munosib vorislari ekanligini namoyish etayotgan oddiy askarlarimiz, serjantlarimiz, ofitserlarimiz, Davlatimiz bayrog'ini dunyo uzra baland ko'tarayotgan sportchilarimiz, iqtisodiyotimiz, xalq xo'jaligimiz, madaniyatimiz rivoji yo'lida fidokorona xizmat qilayotgan, el-yurt manfaatini o'ylab, yonib yashayotgan barcha vatandoshlarimizni, bizni duo qilib, istiqbol yo'lida fidoyi bo'lishga da'vat etayotgan ota-onalarimizni, butun xalqimizni Vatan muhabbati birlashtirib turadi. 14-yanvar — Vatan himoyachilari kuni — barchamizning bayramimizdir. Uning yildan-yilga keng nishonlanayotgani, umumxalq bayramiga aylanib borayotgani buning yorqin dalilidir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, islohotlarimiz yangi bosqichga ko'tarilgan bir paytda harbiylik chin ma'noda sharaflı, faxrli kasbga aylanmoqda. Shahdam-shahdam odimlayotgan harbiyni qarang, qadamidan o't chaqnaydi. Uning ko'nglini muqaddas zaminini, nurafshon kelajak sari intilayotgan yurtini himoyalashdek, tinchlik-osoysishtaligini ta'min-lashdek mas'uliyatdan faxrlanish, g'ururlanish nurlantirib turadi.

"Kiygan harbiy libosing juda yarashibdi, o'rgilay bolam", — deydi ona, askar bolasini quchib. Harbiyning: "O'zbekiston Respublikasiga xizmat qilaman" degan so'zlarining zahirida Vatanga buyuk muhabbat, sadoqat mujassam. Bu muqaddas kalomlarni eshitganingiz hamono qalbingiz ajib tuyg'ular-la qalqiyl.

Yurtimizning har bir o'gil-qizi o'zini Vatan himoyachisi deb hisoblaydi. Kerak bo'lsa Vatani, xalqi, Davlati baxt-soadati yo'lida umrini fido qilishgacha boradi. Mustaqilligimiz, tinch va bunyodkor hayotimiz dushmanlarining qutqusi bilan o'tgan yil 13-mayda ro'y bergan Andijon voqealarida mardlarcha halok bo'lgan, o'limidan so'ng Prezidentimiz Farmoniga ko'ra ikkinchi darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan mukofotlangan kapitan Bahrom Jo'rayev mustaqil mamlakatimiz tinchlik-osoysishtaligi, baxt-soadati yo'lida jon berdi. Harbiy o'g'lonlar timsolida Qasamyodga sodiqlikni, demakki, yurtga, xalqqa, istiqbolga cheksiz sadoqatni ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 14 yilligi arafasida, Prezidentimiz Farmoniga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlari, Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari xodimlaridan bir guruhi davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlandilar. Termiz chegara rayoni "Jaloliddin Manguberdi" ordeni bilan mukofotlandi. Bu Prezidentimizning, davlatimizning ona-yurt himoya-chilariga bo'lgan yuksak e'tiborining yana bir yorqin namunasidir.

Qalbi Vatan mehriga to'la harbiylarimiz davlatimiz chegaralarini, xalqimizning tinch-osoyshta, bunyodkorona hayotini, tinchlik-totuvlikni ko'z qorachig'idek asraydi.

Mayor Alijon SAFAROV